<b>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</b>	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari .....	1440
<b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili .....	1444
<b>Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi</b>	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish .....	1449
<b>Zokirova Feruza Farxod qizi</b>	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции .....	1453
<b>Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи</b>	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления .....	1458
<b>Нуруллина Камила Рустамовна</b>	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi .....	1463
<b>Rahmatov Temur Sotiboldiyevich</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari .....	1472
<b>Ulichkina Lyudmila Ivanovna</b>	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма .....	1478
<b>Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна</b>	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation .....	1485
<b>Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva</b>	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari .....	1489
<b>Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi .....	1493
<b>Q.O.Tursunboyev</b>	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises .....	1500
<b>Yembergenova Aynur Aidosbayevna</b>	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari .....	1506
<b>Rozmatova Umida Yuldashevna</b>	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat .....	1512
<b>Babadjanov Abdirashid Musayevich</b>	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий .....	1527
<b>Едгоров Сардорбек Самадович</b>	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
<b>Sabirova Lobar Baxromovna</b>	
Xo'jaligini soliqaq tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
<b>Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich</b>	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
<b>Юсупов Одил Омонович</b>	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
<b>Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich</b>	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
<b>Madjitova Maftuna Kamiljon qizi</b>	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
<b>Ziyatova Sitora Baxtiyorovna</b>	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
<b>Fariza Xoldarova</b>	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
<b>Hamroyev Sherzod Axtamovich</b>	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
<b>Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li</b>	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
<b>Umirzoqova Aziza Olim qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
<b>Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich</b>	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
<b>Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li</b>	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budjet jarayonini takomillashtirish.....	1602
<b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi</b>	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025).....	1612
<b>Mamataliev Bobur Saidnazar ugli</b>	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni.....	1617
<b>Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li</b>	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
<b>Xusinov I.I.</b>	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
<b>To'xsanov Qudratillo Nozimovich</b>	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
<b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich</b>	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
<b>Oripova Saodat Mirfotikh kizi</b>	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
<b>Halilov Sherzod Akhmatovich</b>	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
<b>Kodir Gulomov</b>	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
<b>Ataniyazova Maksuda Baltabayevna</b>	
Beqarorlik sharoitida korxonalar ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
<b>Jalilov Bahrom Sotiboldievich</b>	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
<b>Musinov Dilshod Sultanovich</b>	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
<b>Kuliboyev Azamat Shonazarovich</b>	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta’minlash mexanizmlari.....	1686
<b>Sattorova Nasiba G’anjon qizi</b>	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta’siri.....	1690
<b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari .....	1694
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o’rni va roli.....	1701
<b>Xudoyorova Mehrangiz Murodovna</b>	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o’rni: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
<b>Abdullayev Zoxid Xolxo’jayevich</b>	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlari.....	1710
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati.....	1714
<b>Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo’rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida</b>	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar .....	1719
<b>Xakimov Zoxid Norbo’tayevich</b>	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1725
<b>Kuliboev Azamat Shonazarovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda ta’limning ahamiyati.....	1731
<b>M.Ostanova</b>	
“Yashil” iqtisodiyotga o’tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari .....	1736
<b>Baxtiyorov Umid Kaxramon o’g’li</b>	
Перспективы и инновационные подходы в методологии управления денежными потоками .....	1741
<b>Машарипова Шахло Адамбаевна</b>	
Soliq to’lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta’minlashning gnoseologik asoslari xususida.....	1746
<b>Abdusheerov Abdullo Baxtiyorovich</b>	
Mintaqaviy turizmni rivojlanishi va xavfsizligini ta’minlashda turizm infratuzilmasining o’rni va ahamiyati (xorazm viloyati timsolida) .....	1753
<b>Doschanov Tangirbergen Doschanovich, Ruzmetova Shoira Shuxrat qizi</b>	
Turizm destinatsiyalarida turistik mahsulotni yaratish jarayonining tahlili.....	1759
<b>Tursunova Gulmira Rabbonovna</b>	
Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarkibiy tahlili.....	1764
<b>Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi</b>	
Davlat organlari ichki audit tuzilmalari tomonidan samaradorlik auditini tashkil etish masalalari.....	1773
<b>Nasimov Fazliddin Sirojevich</b>	
Совершенствование методологических основ внедрения цифровых финансовых активов.....	1777
<b>Якубова Ш.Ш.</b>	
O’zbekistonda turizm sohasi ko’rsatkichlari tahlili .....	1783
<b>Ayubov Ilyos Ilxomovich</b>	
“Yashil iqtisodiyot” ga o’tishda esg-lizingdan foydalanish xususiyatlari .....	1788
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishning nazariy asoslari va amaliy yo’nalishlari .....	1793
<b>Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov</b>	
Agrar sohani barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati .....	1798
<b>Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo’minov Baxodir Orifjonovich</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida aloqa xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari .....	1801
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
Yengil sanoat eksportining mahsulot va geografik diversifikatsiyasi dinamikasi: muammo va yechimlar .....	1805
<b>Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi</b>	



Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashning strategik yondashuvlari .....	1809
<b>Toshboyev Bekzod Baxtiyorovich</b>	
O'zbekistonda vino turizmini rivojlantirish yo'llari.....	1816
<b>Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li</b>	
Yashil startaplar samaradorligini aniqlashda raqamli vositalar roli .....	1820
<b>Eshbayev Oybek Alik o'g'li</b>	
Fuqarolik jamiyati institutlariga moliyaviy mablag' jalb etish yo'llari.....	1830
<b>Po'latov Sardor Akmal o'g'li</b>	
The importance of accounting policy in preparing reports based on international standards.....	1835
<b>Sayfulloev Jamshid Qobil o'g'li</b>	
Qurilish sohasida materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatni raqamlashtirish yo'nalishlari.....	1839
<b>Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li</b>	
Aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish .....	1844
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	



# AKSIYADORLAR, MENEJMENT VA XODIMLAR O'RTASIDAGI AXBOROT ALMASHINUVINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INNOVATSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH

Ismailov Allayor Rashidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Innovatsion menejment" kafedrası

PhD dotsent

ORCID: 0009-0000-6148-342X

**Annotatsiya:** Ushbu maqola korporativ boshqaruvda axborot almashinuvining innovatsion jarayonlarga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali kompaniyaning innovatsion salohiyatini oshirishning zamonaviy modellari o'rganiladi. Maqola raqamli platformalar va ochiq muloqot madaniyati kabi amaliy vositalarning innovatsiyani rag'batlantirishdagi rolini yoritadi. Har bir tomonning (aksiyadorlar, menejment, xodimlar) innovatsiya zanjiridagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Yakunda yaxshilangan axborot almashinuvi kompaniyaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, axborot almashinuvi, innovatsiya, raqamli platformalar, ochiq muloqot, aksiyadorlar, menejment, xodimlar, iqtisodiy samaradorlik.

**Abstract:** This article analyzes the impact of information exchange in corporate governance on innovation processes. The study explores modern models for enhancing the company's innovative potential through strengthening interactions among shareholders, management, and employees. The paper highlights the role of practical tools such as digital platforms and open communication culture in fostering innovation. Particular attention is given to the significance of each stakeholder (shareholders, management, employees) in the innovation chain. Finally, the study demonstrates that improved information exchange contributes to increasing the company's economic efficiency.

**Key words:** corporate governance, information exchange, innovation, digital platforms, open communication, shareholders, management, employees, economic efficiency.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние обмена информацией в корпоративном управлении на инновационные процессы. В исследовании рассматриваются современные модели повышения инновационного потенциала компании за счет укрепления взаимодействия между акционерами, менеджментом и сотрудниками. Особое внимание уделено роли практических инструментов, таких как цифровые платформы и культура открытого общения, в стимулировании инноваций. Подчеркивается значимость каждого участника (акционеры, менеджмент, сотрудники) в инновационной цепочке. В заключение показано, что улучшенный обмен информацией способствует росту экономической эффективности компании.

**Ключевые слова:** корпоративное управление, обмен информацией, инновации, цифровые платформы, открытое общение, акционеры, менеджмент, сотрудники, экономическая эффективность.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobat muhiti tobora kuchayib borayotgan sharoitda korxonalarning muvaffaqiyati, bozordagi barqaror mavqeini saqlab qolishi va uzoq muddatli rivojlanishi ko'p jihatdan ularning innovatsion salohiyatiga bog'liq. Innovatsiyalar faqat yangi texnologiyalarni joriy etish yoki ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni amalga oshirish bilan chegaralanmaydi, balki tashkilotning barcha jarayonlariga, shu jumladan boshqaruv, marketing, ishlab chiqarish va korporativ madaniyatga ham singdirilishi lozim bo'lgan tizimli yangilanishni nazarda tutadi.

Bugungi shiddatli raqobat sharoitida moliyaviy kapital va an'anaviy resurslar o'z ahamiyatini yo'qotmayotgan bo'lsa-da, ularning o'zi yetarli emas. Yangi g'oyalar, innovatsion boshqaruv usullari, raqamli texnologiyalar va ilg'or tajribalarni joriy etish kompaniyalarga bozordagi o'zgarishlarga tez va samarali moslashish, mahsulot va



xizmatlar sifatini oshirish, yangi bozor segmentlariga chiqish hamda xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, an'anaviy boshqaruv modellari ko'p hollarda innovatsiyani yuqoridan pastga qarab qabul qilingan qaror sifatida talqin qiladi, bu esa xodimlarning ijodiy salohiyati, bilim va tajribasidan to'liq foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Shu nuqtayi nazardan, korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning dolzarb talablaridan biriga aylandi. Bunday yondashuvlar, eng avvalo, tashkilotning asosiy manfaatdor tomonlari — aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishni nazarda tutadi. Axborot oqimining erkinligi va shaffofligi innovatsion g'oyalarning tezroq shakllanishi, tahlil qilinishi va amaliyotga joriy etilishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — aksiyadorlik jamiyatlarida axborot almashinuvini takomillashtirish orqali korporativ innovatsiyalarni rag'batlantirishning nazariy asoslarini yoritish hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda ijtimoiy kapital nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi va korporativ tarmoq nazariyasi kabi ilmiy yondashuvlarga tayanildi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli platformalar, masalan korporativ portallar, intranet tizimlari va onlayn hamkorlik muhitlari (Slack, Microsoft Teams, Asana va boshqalar) axborot aylanishini tezlashtirish va sifatini oshirishda muhim omil sifatida tahlil qilindi.

Maqolada, shuningdek, ochiq muloqot madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati, aksiyadorlar tomonidan qabul qilinadigan strategik qarorlardan tortib, xodimlar tomonidan ilgari surilayotgan kichik innovatsion g'oyalargacha bo'lgan jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va ularning umumiy innovatsion zanjirdagi o'rni atroficha yoritiladi.

Axborot almashinuvining samarali tashkil etilishi korxonadagi ichki jarayonlarni optimallashtiribgina qolmay, balki tashqi bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi, strategik qarorlarning aniqligi va o'z vaqtida qabul qilinishiga xizmat qiladi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Shu bois, maqolada ilgari surilayotgan takliflar va amaliy tavsiyalar zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim qadam hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Y. Wei va boshqalarning fikriga ko'ra, innovatsion madaniyatdan kelib chiqadigan uch xil turdagi individual darajadagi natijalar aniqlangan. Bu uchta natijaviy o'zgaruvchi — ishdan qoniqish, tashkiliy dinamikni anglash va firma faoliyatini anglash — xodimlarning tashkiliy innovatsiya va innovatsion madaniyatni yaratish jarayoniga psixologik hamda kognitiv munosabatini aks ettiradi [1].

H. Kremer va boshqalarning fikriga ko'ra, innovatsiyaga erishish faqat ijodiy g'oyalarni yaratish bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon rahbarlarning xodimlarda innovatsion xulq-atvorni rag'batlantirish uchun atayin ishlab chiqilgan tizimli boshqaruv strategiyalarini qo'llashini talab qiladigan murakkab, ko'p bosqichli mexanizmdir [2].

I. C. Hsu o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, uchta tashkiliy amaliyot xodimlarning bilim almashishga bo'lgan moyilligini muvaffaqiyatli oshirishi mumkin: a) kompaniya bo'ylab uzluksiz o'qitish tashabbuslari; b) xodimlarning bilim almashishini rag'batlantiruvchi faoliyatni boshqarish tizimlari; v) bilimlarni almashish muhitini yaratish uchun axborotni ochiqlash. Bu amaliyotlar kompaniya rahbarlari (CEO) tomonidan xodimlarni o'rganish va bilim almashishga undash maqsadida qat'iy qo'llab-quvvatlangan [3].

T. T. Y. Alabdullah va A. Kanaan-Jebnalar ta'kidlashicha, u biznes rahbarlari, siyosatchilar va mutaxassislar uchun qimmatli ma'lumotlar taqdim etib, ularning axborot almashinuvini, sifati va "usiz" (lean) usullari haqidagi tushunchalarini boyitadi. Bu esa korporativ faoliyatni yaxshilash va innovatsiyaga asoslangan o'sishni rag'batlantirish uchun asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi [4].

M. Hashim va boshqalarning tadqiqotlari innovatsion madaniyatning mo'tadillashtiruvchi roli orqali SCM amaliyotlarining tashkiliy faoliyatga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari menejerlarga davom etayotgan loyihalardan ko'proq foyda olish uchun SCM loyihalarini qanday yaxshilash mumkinligi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Keyingi tadqiqotlar sifat menejmenti, ta'minot integratsiyasi va raqobat ustunligi kabi ichki ta'minot zanjiri amaliyotlari uchun qo'shimcha o'lchovlarni mo'tadillashtiruvchi omil sifatida shakllantirishi mumkin [5].

R. Shanker va boshqalarning tadqiqotlarida innovatsiya uchun tashkiliy muhit va uning tashkilot faoliyatiga bog'liqligi haqida ko'plab adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, hozirgacha menejerlarning innovatsion ish xulq-atvori o'rganilgan. Tashkiliy muhit nazariyasiga tayangan holda, ushbu tadqiqot innovatsion ish xulq-atvorining innovatsiya uchun tashkiliy muhit va tashkilot faoliyati o'rtasidagi vositachilik ta'sirini tahlil qiladi [6].

Kim, Tae-Yeol va boshqalarning fikriga ko'ra, tashkiliy innovatsion muhit menejerlarning proaktiv maqsadni tartibga solishi orqali xodimlarning innovatsion xulq-atvoriga ijobiy va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Tashkiliy innovatsion muhit va xodimlarning innovatsion xulq-atvori o'rtasidagi menejerlarning proaktiv maqsadni tartibga



solishi orqali yuzaga keladigan bilvosita bog'liqlik faqat yuqori raqobat muhitiga duch kelgan tashkilotlarda kuzatilgani, past raqobat muhitidagi tashkilotlarda esa aniqlanmagani ko'rsatildi [7].

R. M. Stock va boshqalarning fikriga ko'ra, so'nggi yillarda korxonalar xodimlarni innovatsiyaga yo'naltirilgan korporativ madaniyat bilan ruhlantirish orqali o'z innovatsion salohiyatlarini oshirishga katta sarmoya kiritmoqda. Innovatsiyaga yo'naltirilgan korporativ madaniyatning ko'p qatlamli modelini tahlil qilish jarayonida uch xil manbadan: marketing menejerlari, R&D (tadqiqot va ishlanmalar) menejerlari hamda mijozlardan olingan ma'lumotlardan foydalanilgan [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan adabiyotlar tahlili, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda iqtisodiy indikatorlardan foydalanildi. Shuningdek, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash, sintez va induktiv-deduktiv usullar tadqiqotda asosiy ahamiyat kasb etdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ innovatsiyalarning muvaffaqiyati faqatgina ijodiy g'oyalarning mavjudligi bilan emas, balki tashkilotning asosiy manfaatdor tomonlari — aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvining sifati va samaradorligi bilan belgilanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, innovatsiya stixiyali jarayon emas, balki atayin yaratilgan va boshqariladigan tizim bo'lib, u quyidagi uchta asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi.

Innovatsion madaniyat va ochiq muloqot — maqola axborotning erkin va ochiq harakati innovatsion madaniyat uchun asos ekanini isbotlaydi. Xodimlarning fikrini erkin ifoda etishi va menejmentning bu fikrlarni tinglashi ijodkorlik va yangi g'oyalarni yaratishga undaydi. Bunda ishonch va xavfsizlik muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Texnologik vositalarning roli — tadqiqot raqamli platformalarning muloqotni tezlashtirish, iyerarxik to'siqlarni olib tashlash va jamoaviy bilimlarni birlashtirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Bu texnologiyalar innovatsion g'oyalarning kompaniyaning barcha darajalari bo'ylab erkin tarqalishiga imkon beradi.

Manfaatdor tomonlarning o'zaro bog'liqligi — maqola innovatsiya jarayonida har bir tomonning (aksiyadorlar, menejment, xodimlar) o'rni qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Aksiyadorlarning sarmoyasi, menejmentning resurslarni taqsimlash bo'yicha qarorlari va xodimlarning kundalik tajribalaridan kelib chiqadigan g'oyalar o'zaro uyg'unlashgandagina haqiqiy innovatsion muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Innovatsiyaga erishish uchun faqatgina ijodiy xodimlarga ega bo'lish yetarli emasligini, balki boshqaruvning tizimli va strategik yondashuvi talab etilishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv asosida axborot almashinuvini takomillashtirish va bu orqali kompaniyaning ichki jarayonlarini optimallashtirish, bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlash yotadi.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotimiz shu jarayonni tahlil qilib, bir qancha muhim natijalarni aniqladi.

Axborot almashinuvi va innovatsion madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik. Tahlil shuni ko'rsatdiki, kompaniya ichida ochiq va erkin axborot almashinuvi innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun asosiy omildir. Xodimlar o'z fikrlari va takliflarini qo'rqmasdan bildira olishi, menejment va aksiyadorlar esa bu ma'lumotlarni qadrlashi innovatsion g'oyalarning erkin paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha, axborot oqimi cheklangan yoki iyerarxik tuzilmalarda innovatsion g'oyalar ko'pincha yuqoriga chiqib bormaydi yoki rad etiladi, bu esa ijodkorlikka to'sqinlik qiladi.

Raqamli platformalarning hal qiluvchi roli. So'rovnomalar va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy raqamli platformalar (masalan, korporativ ijtimoiy tarmoqlar, g'oyalar banki, loyiha boshqaruvi dasturlari) axborot almashinuvini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Tezkor aloqa — xodimlar o'z g'oyalarni menejerlar va hamkasblar bilan tezkor ravishda bo'lishishi mumkin.
- Rahbarga qaramlikni kamaytirish — g'oyalar endi faqat yuqori rahbariyatga shaxsiy muloqot orqali yetkazilmaydi, balki maxsus platformalar orqali barchaga ochiq holda muhokama qilinadi.
- Jamoaviy intellekt — platformalar turli bo'lim va darajadagi xodimlarning bilimlarini birlashtirishga imkon beradi, bu esa yanada murakkab innovatsion muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Har bir manfaatdor tomonning innovatsion jarayondagi o'rni. Ma'lumotlar tahlili aksiyadorlar, menejment va xodimlarning innovatsion faoliyatdagi o'rni o'zaro bog'liq ekanini ko'rsatdi:



• Aksiyadorlar — ular innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish uchun yetarlicha axborotga ega bo'lishi kerak. Axborot almashinuvi yaxshi yo'lga qo'yilgan kompaniyalarda aksiyadorlar innovatsiya risklarini yaxshiroq tushunadi va ularni qo'llab-quvvatlaydi.

• Menejment — menejerlar xodimlar va aksiyadorlar o'rtasidagi axborot oqimini boshqarishda markaziy rol o'ynaydi. Ular xodimlarning g'oyalarini tinglab, ularni amalga oshirish uchun resurslar ajratishi, shuningdek, aksiyadorlarga bu loyihalarning potensial samaradorligi haqida hisobot berishi lozim

• Xodimlar — ular innovatsiyalarning asosiy manbaidir. Ishchilarning o'z vazifalari doirasida paydo bo'ladigan muammolar va yangi imkoniyatlar haqidagi bilimi innovatsion g'oyalar uchun mustahkam asos yaratadi.

Natijalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri. Statistika ma'lumotlar tahlili axborot almashinuvining yaxshilanishi kompaniyaning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ochiq axborot oqimi mavjud bo'lgan kompaniyalarda:

- Yangi mahsulotlar bozorga tezroq chiqarilgan.
- Ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilgan va xarajatlar kamaygan.
- Mijozlarning talablariga tezroq moslashish imkoniyati oshgan.
- Kompaniyaning umumiy rentabelligi va bozordagi ulushi oshgan.

Axborot almashinuvi faqatgina ma'lumot uzatish jarayoni emas, balki korporativ innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi strategik mexanizmdir. Tahlil natijalari bu jarayonni tizimli ravishda boshqarish, uni zamonaviy texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlash va barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun muhimligini ko'rsatdi.

Maqoladagi asosiy g'oyalar va natijalarni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun ularni jadval ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin (1-jadval).

#### 1-jadval. Axborot almashinuvining innovatsion jarayonga ta'siri<sup>1</sup>

Axborot almashinuvi darajasi	Innovatsion madaniyat	Xodimlarning xulq-atvori	G'oyalar oqimi
Ochiq va erkin	Kuchli, ishonchga asoslangan	Faol, tashabbuskor	Yuqori, uzluksiz
Chegaralangan va iyerarxik	Zaif, byurokratik	Passiv, sust	Past, bo'g'ilgan

Ushbu jadval korporativ boshqaruvda axborot almashinuvi va innovatsiyalar o'rtasidagi mustahkam va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aniq ko'rsatib beradi. U innovatsiyaga erishish faqatgina ijodiy g'oyalarning mavjudligi bilan emas, balki bu g'oyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhit bilan ham bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Jadval ikki xil ssenariyni solishtiradi:

1. Ochiq va erkin axborot almashinuvi. Bu ssenariyda axborot iyerarxiyaga qarab cheklanmaydi. Xodimlar, menejment va aksiyadorlar o'rtasidagi muloqot erkin, shaffof va ishonchga asoslangan. Bunday muhitda:

• Innovatsion madaniyat kuchli — kompaniyada xato qilishdan qo'rqmasdan yangi g'oyalarni taklif qilish, tajriba o'tkazish va risk olish qabul qilinadigan holatga aylanadi.

• Xodimlar xulq-atvori faol va tashabbuskor — xodimlar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etishga intiladilar, chunki ularning fikrlari qadrlanishini va amalga oshirish imkoniyatiga ega ekanini biladilar.

• G'oyalar oqimi yuqori va uzluksiz — g'oyalar doimiy ravishda pastdan yuqoriga (xodimlardan menejmentga), yuqoridan pastga va gorizontal yo'nalishda (bo'limlar o'rtasida) harakatlanadi, bu esa kompaniyani doimiy takomillashish holatida ushlab turadi.

2. Chegaralangan va iyerarxik axborot almashinuvi. Bunday ssenariyda ma'lumotlar qat'iy iyerarxik kanallar orqali harakatlanadi, bu esa byurokratiya va rasmiyatchilikni kuchaytiradi. Natijada:

• Innovatsion madaniyat zaif va byurokratik — yaxshi g'oyalar hatto yuqoriga yetmasligi yoki qabul qilinmasdan rad etilishi mumkin. Jazolashdan qo'rqish yoki mas'uliyatni bo'yniga olishdan qochish kabi omillar ijodkorlikka to'sqinlik qiladi.

• Xodimlarning xulq-atvori passiv va sust — xodimlar tashabbus ko'rsatishdan o'zini tiyadilar, chunki ularning g'oyalari e'tiborga olinmasligiga yoki rad etilishiga ishonadilar. Bu esa ularning ishdan qoniqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

• G'oyalar oqimi past va bo'g'ilgan — kompaniyada yangi g'oyalar kam paydo bo'ladi, chunki muloqot kanallari cheklangan. Bunday holat uzoq muddatda kompaniyaning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Jadvalning asosiy xulosasi shuki, ochiq va erkin axborot almashinuvi — bu shunchaki aloqani yaxshilash emas, balki tashkilotda innovatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan ijodiy muhit va madaniyatni yaratish uchun zarur bo'lgan strategik choradir. Bunday yondashuv natijasida kompaniya faqatgina yangi g'oyalarni yaratishga emas, balki ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ham qodir bo'ladi (2-jadval).

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

2-jadval. Axborot almashinuvi mexanizmlari va ularning natijalari<sup>2</sup>

Mexanizm turi	Ta'sir ko'rsatadigan tomonlar	Erishiladigan natija
Raqamli platformalar	Xodimlar, menejment	G'oyalarni tezkor almashish, jamoaviy bilimni birlashtirish, iyerarxik to'siqlarni olib tashlash
Ochiq muloqot madaniyati	Menejment, xodimlar	Ishonch muhiti, xodimlarning erkin fikr bildirishi, xatolardan qo'rqmaslik
Aksiyadorlar bilan aloqa	Menejment, aksiyadorlar	Innovatsion loyihalar haqida ochiq hisobot berish, risklarni tushuntirish va sarmoya kiritishni qo'llab-quvvatlash

Ushbu jadval innovatsiyaga erishish uchun zarur bo'lgan axborot almashinuvi mexanizmlarini va ularning har bir manfaatdor tomonga hamda umumiy natijalarga qanday ta'sir ko'rsatishini batafsil tavsiflaydi. U innovatsion boshqaruv tizimi faqat birlamchi (individual) omillarga emas, balki aniq vositalar va amaliyotlarga ham asoslanishi kerakligini ko'rsatadi.

1. Raqamli platformalar. Bu mexanizm zamonaviy texnologiyalarning korporativ boshqaruvdagi rolini aks ettiradi. Raqamli platformalar (masalan, internet, loyiha boshqaruvi dasturlari yoki g'oyalar banki uchun maxsus ilovalar) axborotni gorizont va vertikal yo'nalishda erkin harakatlanishiga imkon beradi. Buning natijasida:

- G'oyalar tezkor almashiladi. Bu avvalgidek qog'ozbozlik va rasmiy kanallar orqali emas, balki real vaqt rejimida sodir bo'ladi.

- Jamoaviy bilim birlashadi. Turli bo'lim va lavozimdagi xodimlar o'z g'oyalarini bir joyga to'plashi mumkin, bu esa "kollektiv aql"ni shakllantiradi va kompleks muammolarni hal qilish uchun yangi yechimlarni topishga yordam beradi.

- Ilerarxik to'siqlar olib tashlanadi. Endi kimdir o'z g'oyasini rahbarga shaxsan yetkazish uchun ruxsat so'rab o'tirmaydi, balki uni umumiy platformaga joylashtirishi mumkin. Bu esa yangi g'oyalarning tezroq paydo bo'lishi va baholanishiga olib keladi.

2. Ochiq muloqot madaniyati. Bu mexanizm texnik vositalardan ko'ra ko'proq insoniy omilga tayanadi. Bu, avvalo, rahbariyatning xodimlar bilan ochiq, samimiy va ishonchga asoslangan muloqot olib borishini anglatadi. Natijada:

- Ishonch muhiti yaratiladi. Xodimlar o'z fikrlari va tanqidlari uchun jazolanmasligiga ishonishi kerak. Bu his ularni yangi g'oyalar taklif qilishga va tavakkal qilishga undaydi.

- Xodimlar erkin fikr bildiradi. Agar xodim o'zining fikri eshutilishiga va qadrlanishiga ishonsa, u tashabbuskor bo'ladi va ijodiy yechimlar izlaydi. Bu esa ichki innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

- Xatolardan qo'rqmaslik. Ochiq madaniyatda xatolar muvaffaqiyatsizlik emas, balki o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilinadi. Bunday yondashuv xodimlarni yangiliklar yaratishga yanada ko'proq ruhlantiradi.

3. Aksiyadorlar bilan aloqa. Bu mexanizm menejment va kompaniya egalari o'rtasidagi axborot almashinuvining muhimligini ta'kidlaydi. Natijada:

- Ochiq hisobot beriladi – menejment innovatsion loyihalarning potensial foydasi va xarajatlari haqida aksiyadorlarga ochiq va aniq ma'lumot berishi kerak.

- Risklar tushuntiriladi va sarmoya qo'llab-quvvatlanadi – innovatsiya har doim risk bilan bog'liq. Agar menejment bu risklarni qanday boshqarishni aniq tushuntirib bersa, aksiyadorlar yangi loyihalarga sarmoya kiritishga ko'proq moyil bo'ladilar. Bu esa innovatsiya uchun zarur moliyaviy resurslarni ta'minlaydi.

Ushbu jadval nafaqat "nima" (qaysi mexanizmlar) innovatsiyaga yordam berishini, balki "nima uchun" (qanday natijalarga erishiladi) va "kim" (kimga ta'sir ko'rsatadi)ga ham javob beradi. Bu esa korporativ boshqaruvda axborot almashinuvini takomillashtirishga tizimli yondashuvni asoslaydi (3-jadval).

3-jadval. Manfaatdor tomonlarning innovatsiyadagi o'rni<sup>3</sup>

Manfaatdor tomonlar	Innovatsiyadagi asosiy roli	Axborot almashinuvidagi funksiyasi
Aksiyadorlar	Strategik yo'nalishni belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Menejmentdan loyihalar haqida ma'lumot olish, o'z fikrini bildirish
Menejment	Resurslarni taqsimlash, loyihalarni boshqarish	Xodimlar g'oyalarini yig'ish, aksiyadorlarga hisobot berish, aloqani muvofiqlashtirish
Xodimlar	G'oyalarni yaratish, kundalik muammolarni hal qilish	Muammolar haqida ma'lumot berish, yangi g'oyalar taklif qilish

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi



Ushbu jadval innovatsiya jarayonida har bir manfaatdor tomonning o'zaro bog'liq rolini aniq tasvirlaydi. U innovatsiya bitta shaxs yoki guruhning mas'uliyati emas, balki butun tashkilotning birgalikdagi sa'y-harakatlari ekanini ko'rsatib beradi.

Aksiyadorlar – innovatsiyaning strategik moliyachisi.

Innovatsiyadagi roli – aksiyadorlar kompaniyaning uzoq muddatli strategik yo'nalishini belgilaydi va innovatsion loyihalar uchun asosiy moliyaviy resurslarni ajratadi. Ularning maqsadi — sarmoya kiritish orqali kompaniya qiymatini oshirish va daromadli o'sishni ta'minlashdir.

Axborot almashinuvidagi funksiyasi – aksiyadorlarning innovatsiyani qo'llab-quvvatlashi uchun ular yangi loyihalarning potensial daromadi va risklari haqida aniq, shaffof ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Ular menejmentdan hisobotlarni olish va o'z fikrlarini bildirish orqali qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadilar. Axborotning yetarli emasligi yoki noto'g'riligi innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ishonchni susaytirishi mumkin.

Menejment – innovatsiyaning muvofiqlashtiruvchisi.

Innovatsiyadagi roli – menejment aksiyadorlar belgilagan strategiyani amalga oshirish va xodimlarning ijodiy g'oyalarini real loyihalarga aylantirish uchun mas'uldir. Ular resurslarni taqsimlaydi, loyiha jarayonlarini boshqaradi va ichki muloqotni tashkil qiladi.

Axborot almashinuvidagi funksiyasi – menejment ikki tomonlama muhim vazifani bajaradi. Bir tomondan, ular xodimlarning g'oyalarini yig'ib, ularni baholaydi. Boshqa tomondan, ular bu g'oyalarning amalga oshirilishi va natijalari haqida aksiyadorlarga hisobot beradi. Menejmentning axborotni samarali boshqarishi innovatsiya zanjirining ishlashi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xodimlar – innovatsiyaning asosiy manbai.

Innovatsiyadagi roli – xodimlar kompaniya faoliyatining "oldi" chizig'ida ishlaydigan insonlar sifatida kundalik muammolar va ehtiyojlarni yaxshi biladilar. Ularning ijodiy fikrlari va tajribalari innovatsion g'oyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

Axborot almashinuvidagi funksiyasi – xodimlarning asosiy vazifasi kundalik jarayonlardagi muammolar haqida axborot berish va ularni hal qilish uchun yangi g'oyalar taklif qilishdir. Ularning fikrlari eshutilishiga va qadrlanishiga ishonishi ularni tashabbuskorlikka undaydi. Axborot almashinuvi bo'lmasa, xodimlarning ko'plab qimmatli g'oyalari aytilmay qolishi mumkin.

Jadval innovatsiyaga erishish uchun barcha tomonlarning birgalikda, axborotni samarali almashish orqali harakat qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Ularning har birining roli o'ziga xos bo'lsa-da, axborot almashinuvi bu rollarni birlashtirib, kompaniyaning umumiy innovatsion maqsadlariga erishishini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsiyaga erishish nafaqat kompaniyaning moliyaviy yoki texnik resurslariga, balki eng muhimi, tashkilot ichidagi axborot almashinuvining sifatiga bog'liq. Aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi o'zaro ochiq va erkin muloqot innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun asosiy zamindir. Tahlillar axborot almashinuvini takomillashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvning kompaniyaning umumiy samaradorligiga, bozordagi raqobatbardoshligiga va uzoq muddatli muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

Asosiy xulosalar:

- Axborot oqimi innovatsiyalarni harakatlantiruvchi kuch bo'lib, iyerarxik to'siqlarning olib tashlanishi va ochiq muloqot muhitining yaratilishi xodimlarning g'oyalarini erkin ifoda etishga undaydi.
- Texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi, raqamli platformalar bilimlarni almashishni tezlashtiradi va butun tashkilotning jamoaviy intellektini birlashtirishga yordam beradi.
- Birdamlik muhim bo'lib, innovatsiya jarayonida har bir manfaatdor tomonning aniq roli bo'lsa-da, ularning o'zaro samarali aloqasigina haqiqiy muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Amaliy takliflar:

Raqamli g'oyalar bankini yaratish va rag'batlantirish – kompaniya ichida xodimlar o'z g'oyalarini joylashtirishi mumkin bo'lgan maxsus onlayn platforma (masalan, "G'oyalar banki")ni tashkil etish. Bu platformaga berilgan har bir taklifni baholash va eng yaxshilarini mukofotlash mexanizmini joriy qilish.

Menejmentning ochiq muloqotga bo'lgan mas'uliyatini oshirish – rahbarlarni xodimlar bilan ochiq muloqot olib borish, ularning fikrlarini tinglash va ularni qo'llab-quvvatlashga o'rgatish. Buning uchun liderlik treninglari va muloqot bo'yicha seminarlar tashkil etish mumkin.

Aksiyadorlar va menejment o'rtasida axborot shaffofligini ta'minlash – menejment innovatsion loyihalar haqidagi hisobotlarni nafaqat moliyaviy, balki ijodiy va strategik ko'rsatkichlar bilan ham to'ldirib, aksiyadorlarga taqdim etishi kerak. Bu aksiyadorlarning innovatsiyani uzoq muddatli sarmoya sifatida qabul qilishiga yordam beradi.



Komplekslikni tan olish va qo'llab-quvvatlash – tashkilotlar innovatsiyaning murakkab jarayon ekanini tan olishi va xodimlarning xatolari uchun jazolashdan voz kechishi kerak. Buning o'rniga, xatolardan saboq chiqarishga asoslangan “o'rganuvchi tashkilot” madaniyatini shakllantirish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wei Y. et al. The impact of innovative culture on individual employees: The moderating role of market information sharing //Journal of Product Innovation Management. – 2013. – T. 30. – №. 5. – C. 1027-1041.
2. Kremer, H., Villamor, I., & Aguinis, H. (2019). Innovation leadership: Best-practice recommendations for promoting employee creativity, voice, and knowledge sharing. *Business horizons*, 62(1), 65-74.
3. Hsu, I. C. (2006). Enhancing employee tendencies to share knowledge—Case studies of nine companies in Taiwan. *International Journal of information management*, 26(4), 326-338.
4. Alabdullah T. T. Y., Kanaan-Jebna A. The mediating role of innovation on the relationship between supply chain management and company performance in the kingdom of Bahrain //Journal of Humanities, Social Sciences and Business. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 160-176.
5. Hashim M. et al. Impact of supply chain management practices on organizational performance and moderating role of innovation culture: a case of Pakistan textile industry //International Conference on Management Science and Engineering Management. – Cham : Springer International Publishing, 2019. – C. 390-401.
6. Shanker R. et al. Organizational climate for innovation and organizational performance: The mediating effect of innovative work behavior //Journal of vocational behavior. – 2017. – T. 100. – C. 67-77.
7. Kim, Tae-Yeol, et al. “Effects of organizational innovative climate within organizations: The roles of Managers' proactive goal regulation and external environments.” *Research Policy* 53.5 (2024): 104993.
8. Stock R. M., Six B., Zacharias N. A. Linking multiple layers of innovation-oriented corporate culture, product program innovativeness, and business performance: A contingency approach //Journal of the Academy of Marketing Science. – 2013. – T. 41. – №. 3. – C. 283-299.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 5

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---